

«Advanced Science and Technology: Celebrating 15 Years of Turin Polytechnic University in Tashkent» ilmiy konferensiyasi

Joriy yilning 22-23 aprel kunlari, Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining 15 yilligiga bag'ishlangan «Advanced Science and Technology: Celebrating 15 Years of Turin Polytechnic University in Tashkent» ilmiy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

An'anaviy tarzda o'tkazib kelinadigan mazkur ilmiy konferensiyadan asosiy maqsad mashinasozlik va aerokosmik muhandislik, tabiiy va matematik fanlar, axborot texnologiyalari, qurilish va arxitektura, shuningdek, ishlab chiqarishni boshqarishning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari muhokama qilish, olimlarning ilmiy izlanishlarini birlashtirish, tajriba almashishdan iborat.

Konferensiyani Toshkent shahridagi Turin Politeknika universitetining rektori, t.f.d. O.Tuychiev kirish so'zi bilan ochib berib, anjuman ishtirokchilari va mehmonlarini samimiy qutladi hamda TTPUda o'qish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan fan va texnika taraqqiyoti haqida qisqacha to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng Italiyaning Turin politexnika universiteti rektori Stefano Paolo Korgnati tabrik so'zi bilan chiqdi. Konferensiyaning birinchi qismida akademik D.To'laganov va prof. Alberto Saporaning plenar ma'ruzalari tinglandi. So'ng

Yalpi majlis ma'ruzalaridan so'ng seksiya ma'ruzalari tinglandi. Birinchi kun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ma'ruzalar tinglandi: Tabiiy fanlar, Axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari va ishlab chiqarishni boshqarish.

















